MALAKAVIY AMALIYOT KASBIY KOMPETENTSIYANI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILI

Boymatov Nuriddinjon Mirzaqulovich - Guliston davlat pedagogika instituti, dotsent
Jumaboyev Bobur Bobomurod o‘g‘li - Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va haëtiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi.

"Kompetentlik" (ingl. "competence” va lot.”competere” - "kobiliyat") - faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat, munosiblik, layoqat va iqtidorni namoyon eta olish qobiliyati ma’nosini anglatadi.

Bunday xislatlarga ega mutaxassis kadrlarni tayyorlashda malakaviy amaliyotining o‘rni muhim. Talabalarning malakaviy (pedagogik) amaliyoti oliy ta’lim muassasalarida olib boriladigan ta’lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi va izchil davomi sanalib, o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni mustahkamlash, kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadlarida 1998-yil 30-oktyabr 305-sonli Nizomga muvofiq tashkil etilib o‘tkazilib kelinmoqda.

Ma’lumki, malakaviy amaliyot ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr kasbiy faoliyatining ob’ektlarida: umumiy o‘rta ta’lim maktablarida, kasb-hunar kolleji va akademik litseylardagi o‘qituvchilar, o‘quv tarbiyaviy jarayonlar, pedagogik texnologiyalar va o‘qitish uslublari hamda davlat aktsioner va xususiy firmalar, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, davlat boshqaruv tizimida tashkil etib o‘tkaziladi.

Talabalarning malakaviy amaliyoti oliy ta’lim muassasalarida olib boriladigan ta’lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi va izchil davomi sanalib, o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni mustahkamlash, kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadlarida Nizomga muvofiq tashkil etilib o‘tkazilib kelinmoqda. Ma’lumki, malakaviy amaliyot ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr kasbiy faoliyatining ob’ektlarida: ta’lim tizimida tashkil etiladi. Malakaviy amaliyotni o‘tkazishda og‘zaki va yozma yo‘l-yo‘riqlardan keng ko‘lamda foydalaniladi. Og‘zaki yo‘l-yo‘riq berishda bajariladigan ish yoki operatsiya bo‘yicha malakaviy amaliyot rahbari bajarish tartibini ko‘rsatib, uning mohiyatini tushuntiradi. Yozma yo‘l-yo‘riq sifatida yo‘riqli texnologik xaritalardan foydalaniladi. Yozma yo‘l-yo‘riqdan foydalanish orqali talabalarda mustaqillik, o‘z-o‘zini nazorat qilish xislatlari rivojlantiriladi. Ular tuzilishi jihatidan oddiy, aniq, qisqa, tushunarli, ko‘rgazmali bo‘lishi maqsadga muvofiq. Odatda, yo‘riqli texnologik xaritalar murakkab ishlarni bajarish uchun ishlab chiqiladi. Yo‘riqli texnologik xaritada malakaviy amaliyotni bajarish uchun zarur bo‘lgan ko‘rsatmalar va talablar, hayot va mehnat xavfsizligi qoidalari batafsil ma’lum mantiqiy ketma-ketlikda, ya’ni qadam-baqadam ko‘rsatiladi.

Malakaviy amaliyot quyidagicha uch bosqichda tashkil etilishi pedagog olimlar va amaliyotchilar tomonidan e’tirof etilgan: rejalashtirish; asosiy - amalga oshirish jarayoni; yakuniy, natijani maqsad bilan qiyoslab xulosa chiqarish va yangi ishlarni

rejalashtirish. Bu bosqichlar psixolog olim P.Ya.Galperin tomonidan ilgari surilgan "Aqliy xatti-harakatlar usullarini bosqichma- bosqich shakllantirish va mo'ljalga olish asoslari" nazariyalariga to'liq mos keladi.

Malakaviy amaliyot davrida talabalar integrativ yondoshuv asosida texnologik jarayonni muammoli vaziyatli topshiriqlarni yochimini topishga harakat qiladilar.

Texnologik jarayon ma'lum murakkablikdagi topshiriqlardan iborat bo'lganligi bois, talabalardan yuqori darajadagi diqqat-e'tiborlilik, sabr-toqatlilikni talab etadi. Ana shu zo'riqish kuchlarini imkon qadar kamaytirish uchun yo'l-yo'riqli texnologik xarita qo'llaniladi. Chunki bunday xaritada ishni bajarilishiga oid har bir bosqichni ma'lum mantiqiy ketma-ketlikda ma'no-mohiyati yoritilgan holda berilgan bo'ladi. Shuningdek, yo'riqli texnologik xaritadan foydalanish talabalardan o'z kuchiga ishonch his-tuyg'ularini ham shakllantiradi, mustaqilligini oshiradi. Malakaviy amaliyoti davrida talabalar bajargan ishlar me'yorlanmaydi, balki ularga ajratilgan vaqt o'quv amaliyoti dasturiga mos holda o'rnatiladi.

Malakaviy amaliyot ijodiy jarayon bo'lib, amaliyot rahbari va talabalardan barcha aqliy, jismoniy va emotsional imkoniyatlarini safarbar etishni talab etadi.

Malakaviy amaliyotini o'tkazishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkinligi e'tirof etilgan: mashq; suhbat; mehnat usullari va jarayonlarini namoyish etish hamda mohiyatini tushuntirish; amaliy laboratoriya ishlari; ishlab chiqarish tavsifli topshiriqlarni bajarish; ishlab chiqarish tavsifli o'yinlar; yozma yo'riqnoma hujjatlarini qo'llash; ko'rsatmali vositalar orqali namoyish etish; adabiyotlar va hujjatlar bilan mustaqil ishlash.

Yo'riqli texnologik xaritalar talabalarning turli sezgi organlarini o'quv materialiga jalb etib, ko'zda tutilgan ishni mohiyati va mazmunini tushunish, talab darajasida ishlarni bajarishga imkon beradi. Yo'riqli texnologik xarita – talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, axborot manbai, har bir talaba uchun yakka tartibda yoki kichik guruhlar tarkibida jamoaviy mustaqil ishlarni bajarish uchun yo'l-yo'riq ko'rsatish, mustaqillikni tarkib toptirish kabilarni ko'zda tutuvchi didaktik vosita hisoblanadi. Chunki unda nima, qanday qilib va nima uchun aynan shunday bajarilishi kerak, degan savolga javob topiladi. Yo'riqli texnologik xaritada mehnat usullari, operatsiyalari imkon qadar aniq, ko'rsatmalilik asosida bajarilish ketma-ketligi tushunarli berilishi kerak. Ularning didaktik qiymati o'quv axborotlarini turlicha shakllarda, ya'ni ko'rsatmani so'zda ifodalanishi, chizmalar, sxemalar, rasmlar, jadvallar va nazorat savollarini bir-biri bilan uyg'un holda berilganligidadir.

Yo'riqli texnologik xarita asosida talabalar o'zlarining mustaqil ishlarini tashkil etadilar, kerakli paytlarda o'z-o'zlarini nazorat qiladilar va faoliyatlariga o'zgartirishlar kiritadilar.

Yo'riqli texnologik xaritalarga quyidagi talablar qo'yiladi: o'quv rejasiga uning mazmunini mos kelishi; mazmunan va mantiqan tugallangan bo'lishi; tuzilmasi oddiy (nima, qanday va nima uchun shunday qilinishi kerak savollariga javob beradigan) bo'lishi; real o'quv jarayoni va ma'lum kasb hamda ixtisoslik bo'yicha mutaxassis mehnat faoliyati elementlarini o'zida ifodalashi; axborotlar aniq, qisqa, tushunarli etarlicha obrazli bo'lishi; grafik qismida rasmlar, sxemalar qadam-baqadam yo'l-yo'riq tariqasida berilishi; o'z-o'zini nazorat qilish va baholash imkonini berish;

murakkab maxsus mashqlarni bajarish uchun yo'l-yo'riqlar ko'rsatish; umumkasbiy tavsifli ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar ko'zda tutilishi: o'lchash, tekshirish, asbob-uskunalardan to'g'ri foydalanish, hayot xavfsizlik qoidalari, ekologik va iqtisodiy masalalarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi; ish usullarini to'g'ri bajarilishi va ularning sifat mezonlarini aks ettirishi; malakaviy amaliyot sharoitida qo'llanish imkoniyatini mavjudligi; o'quv topshiriqlarini qiyinlik darajasini asta- sekin ortib borishi; kabilar.

Kasbiy kompetentsiya: tizimli bilimlar, integrattsiyasi asosida xatti- harakat usullari, shaxsiy fazilatlarning o'zlashtirilishini va ularni faoliyatda qo'llay olishni nazarda tutadi. Shuningdek, kasbiy kompetentsiya kasbiy- pedagogik bilimlarini muttasil boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarga javb berishi, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida ijodiy qo'llay bilishni, tafakkurining kengligi, tez va oson moslashuvchanlik, tizimli va iqtisodiy tafakkurining rivojlanganligi, jamoada dialog va hamkorlikni amalga oshirishi, hamkorlari va safdoshlari bilan chet tillarida erkin fikr almasha olishi, kasblararo o'tuvchi malakalarga egaligi, kompyuterda ishlay olish, ekologiya, iqtisodiyot va biznes mohiyatini tushunish, bir sohadagi texnologiyani boshqa sohalarga o'tkaza olishi, marketing va aqliy mulkini himoya qila olish malakasi, huquqiy- me'yoriy qonun-qoidalarni bilib, ularga amal qilishi, mahsulot va texnologiyalarni taqdimot eta olishi kabilarni ham o'ziga qamrab oladi.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy kompetentsiya deganda davlat ta'lim standartlari darajasida bilim, ko'nikma, va shaxsiy fazilatlarining o'zlashtirilishi hamda amaliy faoliyatda qo'llanishi tushuniladi. Agar kompetentsiyani shakllantirishni maqsad deb qarasak bu maqsadga erishishni ta'minlovchi muhim omillardan biri malakaviy amaliyot ekanligi kelib chiqadi. Shuningdek, malakaviy amaliyot kasbiy kompetentsiyani tarkib toptirish uchun ta'lim mazmunini integratsiyalab o'qitish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. N.A.Muslimov. Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlan- tirishda tizim va muhit munosabati: Pedagogika ilmiy-nazariy jurnal 2016-y. 3-son 9-14-b.

2. O.A.Abdukudusov. Kasbiy kompetentsiyani shakllantirishda o'quv amaliyotining o'rni. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari 2016-yil 30-b.

3. P.Ya.Galperin. Sovremennoe sostoyanie teorii poetapnogo formirovaniya umstvenno'x deystviy – Vest. Mos. UNN-Un-te-1979. №4 S-54-63.

4. Abdukudusov.O.A. O'quv amaliyotini tashkil etish va o'tkazish:(metodik tavsiyalar) T;O'MKHTM AMTH 2015-31B.